Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiq... DOI: 10.5281/zenodo.24317055

11. O’zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to’g’risida”gi Qonuni.25.05.1996 y.

AMIR TEMURNING MOLIYA SOHASIDAGI FAOLIYATI HAQIDA.

Raximov Rustamjon Karimovich,
Andijon mashinasozlik instituti
“Gumanitar” kafedrasi doktoranti, i.f.n., dotsent

Sharq iqtisodiy tafakkurining rivojlanishida ulug‘ bobokalonimiz, sohibqiron, buyuk sarkarda Amir Temur iqtisodiy g‘oyalari, u ishlab chiqqan va amalda yuritgan iqtisodiy siyosat mislsiz ahamiyatga ega. Amir Temur iqtisodiy g‘oyalarining o‘ziga xos ulug‘vorligi shundaki, ular hayoliy emas, balki real hayotdan kelib chiqqan va unda o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun ham bu g‘oyalar o‘zining amaliy hayotiy ahamiyatini yo‘qotmay kelayotir.

Amir Temurning iqtisodiy g‘oyalari «Temur tuzuklari» asarida bayon etilgan. Unda Sohibqironning mamlakatni boshqarish, uni rivojlantirib borish qoidalari, tamoyillari, yo‘l-yo‘riqlari o‘z ifodasini topgan. Bu asarda iqtisodiyotni tashkil etish, barqarorlashtirish, tartibga solib borish, uni barqaror sur’atlar bilan yuksaltirib borishga oid qimmatli iqtisodiy tavsiyalar jamlangan.

Ulug‘ bobomiz Sohibqiron Amir Temurning iqtisodiy me’rosini o‘rganar ekanmiz, uning mamlakatni idora etishda olib borgan moliya sohasidagi, maosh va ulufa sohasidagi, aholini ijtimoiy himoya qilish borasida va soliq ishlari e’tiborimizni o‘ziga jalb etadi.

Markaziy Osiyoda ijod qilgan mutafakkirlarning iqtisodiy mavzudagi asarlari bilan tanishar ekanmiz, ularda mamlakatning iqtisodiy qudrati haqida so‘z yuritilganda asosan hududning kattaligi, aholisi, tabiiy imkoniyatlari, lashkarlari bilan bir qatorda davlat ixtiyorida bo‘lgan xazinaning g‘amlamalari haqida ham so‘z boradi. Xazinaning ahvoli doimo hukmdorlarning diqqat markazida bo‘lgan. Shunga qarab ko‘p hollarda moliya siyosatining yo‘nalishlari belgilangan.

Amir Temur jahondagi 27 mamlakatni bosqichma-bosqich o‘z davlati tarkibiga kiritib, ularni yagona davlat safida birlashtirdi, ularning iqtisodiy va moliya tizimini takomillashtirdi. Bu mamlakatlarning tabiiy sharoiti bir xil bo‘lmaganidek, ularning iqtisodiy rivojlanish darajasi ham, shuningdek aholining turmush darajasi, mashg‘uloti, boshqa mamlakatlar bilan savdo aloqalari ham bir xil emas edi.

Amir Temur bu o‘lkalarni idora qilish usullarini o‘ylar ekan, ularning har birida yiliga qancha yalpi daromad vujudga kelishi, u qanday usullar bilan taqsimlanishi, davlat ixtiyoriga to‘lanadigan to‘lovlar va boshqa masalalarni ko‘z oldiga keltirar,

Published: 28.03.2024
Cite this article: Raximov Rustamjon Karimovich (2024). Amir Temurning moliya sohasidagi faoliyati haqida. Emro Science and Education, 1(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317055
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

ularni shariat qonunlarida ko‘rsatilgan tavsiyalar, avval o‘tgan podsholar tajribasi bilan solishtirar va ma’lum xulosalarga kelar edi.

Shu munosabat bilan Amir Temurning yagona mustahkam saltanatni shakllantirish strategiyasida moliya muammolari o‘zining muhimligi bilan boshqa muammolardan ajralib turar edi. Moliya davlat pul resurslarining markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan fondlarini vujudga keltirish, taqsimlash va qayta taqsimlash, ulardan foydalanishdagi iqtisodiy munosabatlarni ifoda etadi. Bu davrlarda pul munosabatlari yetarli rivojlanmaganligi sababli natura holidagi davlat resurslarining harakati ham Temurning diqqat markazida bo‘lgan.

Amir Temur, avvalo, davlat moliyasining mo‘g‘ul va boshqa bosqinchilarga qaramligini uzil-kesil tugatdi: ulkan davlatning mustaqil moliyasini yaratdi va uni muttasil takomillashtirib bordi. Markazlashtirilgan davlat tarkibiga kirgan barcha mamlakatlar moliyasini bir tizimga birlashtirdi va ularni ma’muriy boshqarish talablari asosida idora qilish usullarini joriy etdi.

Bizga ma’lumki, (azal-azaldan beri) davlat ixtiyoridagi xazina ikki bo‘limdan iborat bo‘lgan: Birinchisi - asosiy xazina; ikkinchisi xarajat uchun xazina. Joriy mablag‘lar taqchilligi sezilganda asosiy xazinadan qarz olingan. Lekin bu xazinani doimo to‘ldirib borishga harakat qilingan. Yillik joriy xarajatlardan ortgan mablag‘lar asosiy xazina g‘amlamalaridan joy olgan. Xazinabon kirim-chiqimlarni mo‘tadil hisobga olib borgan va hukmdorga zarur ma’lumotlarni taqdim etgan. Temur hukmronligida esa xazinaning taqchilligi kam sezilgan.

Temur zamonida jahonda hali birinchi byudjet (xazina) shakllanmagan bo‘lsa ham, lekin uning ilk kurtaklari ko‘rina boshlagan edi. Faqat markaziy xazinaga kelib tushgan va uning hisobidan qilingan xarajatlargina emas, balki viloyatlardagi kirim-chiqimlar ham muntazam yozib borilgan. Viloyatning birinchi vaziri tiyul qilib berilgan (soliq va yig‘im to‘plash huquqi bilan in’om etilgan mulk) hududidan kelgan daromadlarni, mol-ashyolarni kirim daftariga yozib borgan. Lekin bu davrlarda yil boshlanmasdan xazinaning kirim-chiqimlari, kelgusi yilda tushadigan soliqlar va xarajatlar rejalashtirilmagan bo‘lsada, ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, Temur davrida mamlakat xazinasi asosan shakllanib, tuzilib undan mamlakatning moliya tizimini barqarorlashtirishda keng foydalanilgan. Vaholanki, bu narsa Ovrupada, ya’ni Angliyada birinchi bo‘lib XVII asrning 70 yillarida, Fransiyada esa XVII asrning oxirlarida tuzilgan edi.

Amir Temur markazlashgan davlat vujudga keltirish jarayonida raiyatning mol-mulkini talon-taroj qilishdan himoya qildi. Ichki va tashqi bosqinchi, talonchi va qaroqchilarning yo‘li to‘sildi.

Hamma zamonlarda ham, shu jumladan, Amir Temur zamonida ham aholini adolatu-insofdan chekingan, iymonu insofni nafs balosiga almashtirgan amaldoru-

hokimlar, beklar, qozilar, amlakdorlar, yasovullar, zakotchilar va shunga o‘xshashlardan himoya qilish talab qilingan. Sipohiylar tomonidan ham qonun qoidani buzish va kezi kelganda aholi mulkini talon-tarojlik, zo‘ravonlik bilan tortib olish holatlari sodir bo‘lgan.

Amir Temur o‘g‘ri, qaroqchi, zo‘ravonlarni “yaso” asosida jazolagan, fasodchi, buzuqi, nafsi yomon kishilarni mamlakatdan haydab chiqargan. “Hokimlar, sipoh va raiyatdan qaysi birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolatu-insof yuzasidan chora ko‘rdim”. Raiyatga zolimlar tomonidan yetkazilgan ashyoviy va jismoniy zararlar, shariyatga muvofiq odamlar o‘rtasida muhokama qilinar, isbotlangandan keyin zararlar to‘lanar va shariat qoidalariga muvofiq jazolanar edi.

Yo‘llarni qo‘riqlash, o‘tkinchi savdogarlar, musofirlarning mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan manzilga yetkazib qo‘yish uchun yo‘lni kuzatuvchilar, zobitlar tayinlangan edi. Agar yo‘l ustida birontasining narsasi yo‘qolsa, o‘zi o‘ldirilsa yoki boshqa kor-hol yuz bersa, bular uchun javob berish ularning zimmasiga yuklanardi.

Aholining kam ta’minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo‘llab-quvvatlash borasida ham izchil iqtisodiy siyosat olib borilgan va mamlakat xazinasidan ma’lum miqdorda mablag‘ ajratilgan. Ishsizlik o‘sha zamonlarning ham katta ijtimoiy illati hisoblangan. Natural xo‘jalik hukmronlik qilgan zamonda mehant bozori juda sust rivojlangan edi, shuning uchun ishsizlik gadolar sonining ko‘payishida namoyon bo‘lar edi. Amir Temur gadolikka mamlakatni xunuk ko‘rsatuvchi omil deb qaradi va bu ijtimoiy illatning iqtisodiy zaminini yo‘qotmasdan, uning oldini olish mumkin emasligini aniq tahlil qilgan holda ijtimoiy himoya qilishda turli usullaridan foydalandi.

Birinchi navbatda aholining ijtimoiy jihatdan nochor tabaqalari – ojizlar, shol, ko‘r, cho‘loq, qarilik sababi bilan ishlay olmaydiganlari nafaqa bilan ta’minlandi. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, xazinaning o‘n foizi shu maqsadga sarflangan.

Ikkinchi navbatda qilingan ish shu bo‘ldiki, mehnatga qobiliyatli, bilagida kuchi bor faqiru-miskinlar, gadolarni ish va hunar bilan ta’minlash chora-tadbirlari amalga oshirildi. “Yana buyurdimki, har mamlakatning gadolariga vazifa yuklab ish bersinlar, toki shu yo‘l bilan gadolik rasmi yo‘qolsin”.

Gadolikni kasb qilib olganlarni, nafaqa olib ham gadolik qiluvchilarni mamlakat hududidan haydab chiqarish choralari ko‘rilgan. Amir Temur davlati ijtimoiy himoya tizimining eng muhim xususiyati shundan iboratki, unda aholining turli qatlamlari qat’iy tabaqalashtirilgan holda yondoshilgan. Ijtimoiy himoya davlatning moddiy yordamiga muhtoj bo‘lgan jamiyat a’zolariga yo‘naltirilgan. Amir Temur hukmronligida jamiyatimizda kam uchraydigan ijtimoiy himoyaning kamyob

usulidan foydalanilgan. Agar fuqarodan birining uy-joyi buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalar yetkazib berilib, uy egasiga yordam ko‘rsatilgan.

Ijtimoiy himoya tabaqalashtirilgan holda yondoshilgan deganimizning ikkinchi bir isboti shuki, qaysi bir sipohiy xizmatda yurib qarilik yoshiga yetsa, u ulufadan (maoshning turi) mahrum etilmagan va martabasidan tushirilmagan. Aholining ijtimoiy himoyalash masalalari, albatta har bir mamlakat va elatlarning milliy an’analari va urf odatlariga tayangan holda amalga oshirilgan.

Barcha zamonlarda, shu jumladan Temur zamonida ham maorif, sog‘liqni saqlash, musofirlarga xizmat ko‘rsatish, suv chiqarish, ko‘priklar qurish davlatning yordamiga muhtoj bo‘lganlar davlat xazinasidan ta’minlangan.

Sohibqiron tomonidan amalga oshirilgan aholini ijtimoiy himoyalash, ayniqsa eng himoyasiz va muhtoj tabaqalarini qo‘llab-quvvatlash siyosati quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qilgan:

birinchidan, jamiyatda barqarorlik va inoqlik kayfiyatini vujudga keltirgan;

ikkinchidan, fan, madaniyat, mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlanishiga rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qilgan;

uchinchidan, aholini ijtimoiy himoyalash Amir Temurning “Mamlakatni obod, raiyatni rozi” qilishdan iborat iqtisodiy siyosatining uzviy qismini amalga oshirishga erishilgan;

to‘rtinchidan, Temur davlati dovrug‘i butun jahonga tarqalishiga sabab bo‘lgan, u xalqaro ahamiyat kasb etgan.

Amir Temurgacha hukmronlik qilgan sharqdagi hukmdorlar o‘zlaridan keyingi valiahdga otasiga nisbatan ko‘proq meros qoldirish va to‘plangan mablag‘larni ikki qismga bo‘lib, birinchi qismini joriy xarajatlarga sarflash, ikkinchi qismini esa jamg‘armaga o‘tkazishni moliya siyosatining markaziy maqsadi deb bilishar edi. Ammo Amir Temur bo‘lsa xazina mablag‘ini kuchaytirish va oqilona sarflash uchun o‘z moliya tizimining yangi qirralarini shakllantirdi.

Xullas, Amir Temur o‘zbek davlatchiligida moliya tizimi sohasida ilg‘or yo‘nalishlar va usullarni joriy qildi. Amir Temurning moliya strategiyasi iqtisodiy strategiyaning tarkibiy kismi sifatida markazlashgan yirik saltanatni barpo qilish va mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Amir Temur davriga qadar xazinani idora qilish faqat dargoh tamoyiliga asoslangan bo‘lsa, Amir Temur davriga kelib dargoh va vazirlik tamoyillari birgalikda qo‘shib olib boriladigan bo‘ldi, mahalliy va markaziy moliya mahkamalarining huquqlari va vazifalari qaytadan ko‘rib chiqildi, xazina daromadlari soliqli va soliqsiz daromadlarga ajratildi. Shu bilan birga moliya sohasida bir qancha sifat o‘zgarishlari sodir bo‘ldi.

Amir Temur aholining o‘zi yurgizayotgan iqtisodiy siyosatdan, xususan, moliyaviy munosabatlardan, pul muomalasi va soliq tizimidan xabardor bo‘lishini,

ya’ni, iqtisodiy savodxon bo‘lishini talab qilardi. U aholi iqtisodiy savodxon bo‘lsa, mamlakat iqtisodiy jihatdan ravnaq topadi, deb hisoblardi.

Amir Temurning moliya sohasidagi faoliyati aholining iqtisodiy, moliyaviy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro Amir Temur jamg‘armasi.Temur tuzuklari.T.: O‘zbekiston. 2011,
2. A.A. Razzoqov. N.T. O’rmonov. O’rta Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy g’oyalari. Ma’ruza matnlari. T.: 2005, 43-bet.

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINING TAHLILI

Qurbonov Jasurbek Pozilovich,
i.f.f.d., dotsent,
Muhiddinov Nazirjon
TDIU Andijon fakulteti “Bank ishi va audit”
2-kurs talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlat byudjeti nimadan iboratligi, u nimadan iboratligi, qanday taqdim etilishi va shunga a’xshash masalalarning yechimlari haqida sa’z boradi*.

Tayanch iboralar: *Byudjet, davlat byudjeti, xarajatlar, daromadlar, ijtimoiy, iqtisodiy kategoriya, loyiha, prognozlash, moddiy-moliyaviy, soliq, davlat qarzi tahlili.*

Byudjet - bu davlatning daromadlari va xarajatlari moddalar ba’yicha ba’lingan, ma’lum muddatga tuziladigan va qonun bilan tasdiqlangan hujjatdir. U milliy moliyaviy resurslar fondini shakllantirish va undan foydalanish bilan bog’liq ba’lib, bir tomondan davlat a’rtasidagi taqsimlash munosabatlarining bir qismini, ikkinchi tomondan korxonalar va aholi a’rtasidagi taqsimlash munosabatlarining bir qismini bildiradi. toifalari, chunki davlat byudjeti jamiyatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot qiymatini taqsimlash jarayonida a’zining moddiy shakliga ega ba’ladi. Shuningdek, professor V.Rodionova ta’biri bilan aytganda “Byudjet munosabatlari jamiyat iqtisodiy tuzilmasining ajralmas qismi ba’lib, uni amalga oshirish ob’ektiv ravishda davlatning a’z funksiyalarini bajarishi uchun zarur moddiy-moliyaviy bazani shakllantirish bilan belgilanadi” Keyingi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida “A’zbekiston Respublikasining 2024-yilgi Davlat byudjeti ta’g‘risida”gi qonun loyihasi ham ka’rib chiqildi. dasturlari, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari daromadlari va xarajatlari tahlili, davlat qarzi tahlili, davlat byudjeti xarajatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi tahlili o‘z aksini topdi, – dedi